

**SHIMOLIY AFRIKADAN TARALGAN ZIYO, ZAYTUNA
UNIVERSITETI TARIXI**

*O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi
“Islam huquqi” mutaxassisligi 1-bosqich talabasi:
Abdupattayev Muhammadamin
Ilmiy rahbar: yu.f.d., prof. N.Yusupova*

Annotatsiya: mazkur maqolada qadimiy universitetlar, Islom dunyosidagi, va butun dunyodagi birinchi universitet – Zaytuna universiteti haqida so‘z boradi. Universitet tarixi, o‘quv jarayonlari, u yerdan yetishib chiqqan olim, rivojlangan davri va turli tajovuzlarga uchragani tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Tunis, Shimoliy Afrika, Misr, Qohiradagi al-Azhar universiteti, Zaytuna universiteti, Qaroviyn universiteti, Molikiy, masjid.

Zaytuna universiteti – Tunis davlatining poytaxti bo‘lgan Tunis shahridagi qadimiy davlat universiteti va yana shu bilan birlashtirilgan Islom dunyosidagi, nafaqat Islom balki butun dunyodagi birinchi universitetdir. Bu dargoh milodiy 737-yildan buyon toliblarga ilm ziyosini sochib kelmoqda.

Universitet dastlab Zaytuna masjidida tashkil etilgan bo‘lib, u VII asr oxiri yoki VIII asr bosqlarida qurilgan va Shimoliy Afrikadagi yirik islam ta’lim markaziga aylangan. U Oliy ilohiyot instituti, Tunisdagi Oliy islam sivilizatsiyasi instituti va tadqiqot muassasasi, Qayravondagi Islom tadqiqotlari markazidan iborat.

Shimoliy Afrikada dastavval uchta islomiy jome’a faoliyat yurgizgan. Ular: Qohiradagi al-Azhar universiteti, Tunisdagi Zaytuna universiteti va Fasdagagi Qaroviyn universiteti. Al-Azhar universitetiga keladigan bo‘lsak uni sharqda ham g‘arbda ham juda yaxshi bilishadi va ta’rifini eshitishgan. Chunki al-Azharning ta’lim doirasi keng va uning talabalari hamisha, hamma yerda doim peshqadam bo‘lib kelishgan, ulamolar agar ta’lim bo‘yicha asar yozadigan bo‘lishsa al-Azharni esdan chiqarishari amri mahol ish bo‘lgan. Lekin qolgan ikkita jome’aga keladigan bo‘lsak, ularning geografik joylashuvi uchunmi yoki iqtisodiy ahvoli uchunmi al-Azharchalik shuhratga erisha olishmagan va ko‘pchilik qulqlar oldin bu jome’alarning nomlarini ham eshitishmagan. Hatto ahli ilm bo‘lganlarning ham faqatgina ba’zilari bu jome’alar haqida eshitishgan¹.

Agar bu diyorda Zaytuna universiteti bino qilingandan keyin ilm yo‘li qay tartibda ketganiga nazar tashlasangiz, batahqiq bu dargoh qadimdan ilm o‘choqlaridan biri

¹ Dr.Muhammad Xazir Husayn. Tunus va Jami’u az-Zaytuna. – Damashq. Daru an-Navadir. 2010. – B.21.

ekaniga guvoh bo‘lasiz. Ba’zi davrlarda bu yerda ilm va saviya juda kuchli bo‘lgan va o‘z navbatida zaiflashgan davrlari ham bo‘lgan.

Agar biz islom dini va ta’limoti bu yerlarda qanday tarqalgan deb tarixga qaraydigan bo‘lsak, ilk bora xalifa Umar ibn Abdulaziz tobeinlardan o‘nta fuqahoni Afrikadagi berberlarga dinning vojibotlari va ahkomlarini o‘rgatish uchun jo‘natganini ko‘ramiz².

Ilm o‘rgatishga yuborilganlarning boshlig‘i Abu Abdurrahmon Abdulloh al-Habliy edi va yana ularning orasida Abu al-Jahm Abdurrahmon ibn Rofe’ at-Tanuxiy ham bor edi. Batahqiq bu zot Qayravon shahriga birinchi qozi bo‘lgan zotdir. O‘sha paytlar Tunisda ilmgaga juda katta qiziqishlar boshlandi va ularning yosh avlodlari ilm-o‘rganishlik uchun mashriq-u mag‘ribga safar qila boshlashdi. Mana shu toliblardan biri Abdurrahmon ibn Ziyod al-Muofiriy edi. Bu kishi tobeinlar jamoatidan hisoblangan va ilm talab qilishda o‘ziga Abu Ja’far al-Mansurni do‘s tutgan. Qayravon shahriga ummondek ilm va chiroyli odob bilan qaytib kelgan. Abu Ja’far al-Mansur xalifa bo‘lgan paytlarida bu kishini Qayravon shahriga voliy qilib qo‘ygan. Shundan so‘ng qayravon shahrida hijriy beshinchi asrning oxirlarigacha ilm-fan markazi ham hisoblangan³.

Abdurrahmon ibn Ziyodlarning tabaqasidan so‘ng yana bir jamoat mashriqqa qarab ilm safarini qilgan. Bu jamoat Madinada imom Molik r.a. bilan uchrashishgan va undan ta’lim olishgan. O‘zlarida ilm hosil qilib, olimlik darajasiga yetganlaridan keyin o‘zlarining ona yurtlariga qaytib kelishgan. ularning orasida Ali ibn Ziyod, Abdulloh ibn G‘onim va Sitsiliya fotihi Asad ibn al-Farrotga o‘xshagan tolibi ilmlar ham bo‘lgan.

Rivoyatlarda kelishicha Yahyo ibn Amr Iroqga safar qilgan. Safari nihoyasiga yetgach Qayravonga qaytib kelgan. Masjidda talabalar va aholiga ilm tarqatish uchun majlis tashkil qilgan. Majlislarda muzokara qilish uchun Hammos ibn Marvon Hamadoniy ham qatmashgan va majlis tugaganidan so‘ng shunaqa degan “Fiqhda bugun bu kishidan eshitgan narsalarimni Bog‘dodda eshitmaganman”. O‘sha paytlarda Tunisda Ibn Jazzor nomi bilan tanilgan tabib ham yetishib chiqqan. Uning yozgan asarlari oldin lotin tiliga, bugungi kunda esa Yevropa tillariga tarjima qilinib o‘rganilib kelinmoqda.

Zaytuna universitetida to‘rtinchi yuzyillikda yetishib chiqqan ulamolarga qaraydigan bo‘lsak, ularning orasida Ibyoniy tahallusi bilan tanilgan Abu al-Abbos Abdulloh ibn Is’hoq ham bor edi. U zot Molikiy mazhabining bilimdonlaridan bo‘lgan lekin Shofe’iy mazhabiga moyilligi bor bo‘lgan va Misrda yashagan. Ibn Sha’bon r.a. U zot haqida shunday deganlar “Nil daryosi besh yuz yildan buyon undan olimroq odamni ko‘rmadi”. Bu zamon olimlaridan yana bir Abu Muhammad Abdulloh ibn

² Dr.Muhammad Xazir Husayn. Tunus va Jami‘u az-Zaytuna. – Damashq. Daru an-Navadir. 2010. – B.21.

³ Dr.Muhammad Xazir Husayn. Tunus va Jami‘u az-Zaytuna. – Damashq. Daru an-Navadir. 2010. – B.22.

Zayd bo‘lgan. U zot “Navodir” turkumiga kiruvchi, hajmi 100 jild atrofida bo‘lgan asar yozganlar⁴.

Beshinchi yuzyillikga keladigan bo‘lsak bu davrning ko‘zga ko‘ringan ulamolari Abdulhamid ibn Muhammad al-Hiraviy va Abu al-Hasan Ali ibn Muhammadlar bo‘lgan. Bu davrga kelib Tunis, Iroq, Shom va Andalus diyorlarida adabiyotshunoslik juda rivoj topgan edi. O‘z navbatida bu soha Qayravon shahriga ham yetib keldi. Zaytuna universitetidan ham bir necha adabiyotshunoslar yetishib chiqqan. Bunga misol qilib birgina “Umda” kitobi sohibi Hasan ibn Rashiqni keltirishimiz mumkin⁵.

Jome'a tarixini o‘rganib borar ekanmiz, uning yettinchi yuzyillikda yetishtirib bergen katta ulamolariga qaraydigan bo‘lsak, ularning orasidan Ibn Zaytun tahallusi bilan mashhur Abu Ahmad ibn Abu Bakrni ham topamiz. Alloma Abu Ahmad ilm o‘rganishlik uchun Zaytuna universitetidan keyin sharqqa qarab safar qildi va tarixda buyuk nom qoldirgan olim, shayx Izzuddin ibn Abdussalomdan ta’lim oldi. Tahsilni tugatgandan so‘ng ona yurti bo‘lmish Tunisga qaytib keldi va bu yerda katta qozi lavozimiga tayinlandi. Bu davrda amir Abu Zakariyo Yahyo shaharda bir kutubxona barpo qildi va u yerda o‘ttiz olti mingdan ziyod kitob saqlanadigan bo‘ldi. Andalusdagi mashhur arab bayroqdarlaridan biri Ali ibn Muso ham shu davrda Tunisda bo‘lgan va umrining oxirigacha shu yerda yashab istiqomat qilgan. Hozirda uning qabri Zaytuna universitetiga yaqin joyda joylashgan.

Hijriy IX asrda amir Abu al-Foris Abdulaziz Zaytuna universitetining shimoliy tarafida yana yangi kutubxona barpo etdi va u yerda ham minglab kitoblar saqlanadigan va foydalanadigan bo‘ldi. E’tiborga molik jihatlardan yana biri shuki hijriy X arsnинг boshida amir Abu Abdulloh Muhammad al-Hafsiy ham Zaytuna universiteti uchun kutubxona qurdirgan. Amirning ilm-fanda va olimlar orasida ancha o‘rni bo‘lgan. Uning qurdirgan kutubxonasi hozirgacha saqlanib qolgan va hozir ham faoliyat yurgizib kelmoqda. Kutubxona bugungi kunda “Abdaliyya kutubxonasi” deb nomlanadi⁶.

Jome'a tarixidan XII asrga qaraydigan bo‘lsak ilm-fan Tunisda qaytadan uyg‘onganini ko‘ramiz. O‘sha paytlarda Tunisdagi amirlarning ko‘pchiligi madrasalar va kutubxonalar qurishga moyil bo‘lishgan. Tarix bizga yana shularni qissa qiladi-ki, Tunis ulamolaridan bir toifasi al-Azhar universitetiga ilmlarini yanada mukammal qilish uchun safar qilishgan. Misol tariqasida Ali ibn Musa al-Andalusiyini ko‘rsatishimiz mumkin. Bir muddat al-Azharda turib, ilm o‘rganadi va ummondek ilmlari bilan yana Tunisga qaytib keladi⁷.

⁴ Dr.Muhammad Xazir Husayn. Tunus va Jami'u az-Zaytuna. – Damashq. Daru an-Navadir. 2010. – B.23.

⁵ Dr.Muhammad Xazir Husayn. Tunus va Jami'u az-Zaytuna. – Damashq. Daru an-Navadir. 2010. – B.23.

⁶ Dr.Muhammad Xazir Husayn. Tunus va Jami'u az-Zaytuna. – Damashq. Daru an-Navadir. 2010. – B.25.

⁷ Dr.Muhammad Xazir Husayn. Tunus va Jami'u az-Zaytuna. – Damashq. Daru an-Navadir. 2010. – B.27.

Zaytuna universitetining qurilishini birinchi bo‘lib hijriy 79-yilda amir Hasson ibn an-No‘mon al-G‘ossaniy boshlab bergan, so‘nga 114-yilda amir Abdulloh ibn Habhob davom ettirgan, keyinchalik uning qurilishi hijriy 141-yilda tugallangan. Ziyodatulloh ibn Ag‘lab Qayravonga voliy bo‘lgan paytda uning qurilishiga o‘zgartirish va yangiliklar kiritgan. Shundan so‘ng bu yerda ustunlari marmarlardan bo‘lgan go‘zal bir jome’ a qad rostlagan.

Bugungi kunda jome’adagi talabalar soni 2000 atrofida deb e’tirof qilinadi, ularning asosiy qismi Tunisning har tarafidan kelgan talabalar bo‘lsa, ba’zilari Jazoirdan kelib o‘qishadi. Ularning orasida yana Liviyalik va Marokashlik talabalar ham topiladi.

Xulosa

Yuqoridagi ma’lumotlardan, Zaytuna universiteti qadimdan ilm o‘choqlaridan biri ekaniga guvoh bo‘lasiz. Ba’zi davrlarda bu yerda ilm va saviya juda kuchli bo‘lgan va o‘z navbatida zaiflashgan davrlari ham bo‘lgan. Garchi, Azharchalik shuhratga erisha olishmagan va ko‘pchilik quloqlar oldin bu universitetning nomlarini ham eshitishmagan. Hatto islomiy ilm egalari bo‘lganlarning ham faqatgina ba’zilari bu jome’alar haqida eshitishgan. Universitet tarixini o‘rganib, uning yettinchi yuzyillik tarixida ko‘plab olim va allomalar yetishib chiqqanini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dr.Muhammad Xazir Husayn. Tunus va jami’u az-Zaytuna. – Damashq: Daru an-Navadir, 2010. – 342 b.
2. Ahmad ibn Idris Qorofiy. Anvorul-buruq fiy anva ’il-furuq. /79-farq/. Misr: Daru ihya’il kutubil arobiyya, 2010. 2-juz. – 456 b.
3. Shayx Muhammad Xuzariybek.Tarixut tashri’il islomiy. – Bayrut: 1988. – 248 b.
4. www.jameatuzzaytuna.tn